

TURKIY SO‘ZLARDA O‘ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI

*Maxmudova Oygul Toxirjonovna**Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. O‘zbek tilshunos olimlari o‘rtasida turkiy so‘zlarni morfemalarga ajratish va o‘zakni aniqlash borasida bir qator fikrlar mavjud bo‘lib, ular orasida A.Hojiyev va M.Mirtojiyevlarning qarashlari bu boradagi ilmiy fikrlarga oydinlik kiritadi. Turkologlarning ilmiy-nazariy qarashlarini umumlashtiradi.

Kalit so‘zlar: morfema, turkiy so‘zlar, o‘zak, tub so‘z, leksema, grammatik shakl.

Tilshunos olim A.Hojiyev so‘zlarning morfemalardan tarkib topishi va ularning tasnifi yuzasidan bildirilgan fikrlar o‘zbek tiliga tatbiq etilgan ekan, uni ma‘lum bir tadqiqotchiga bog‘lamaydi. Agar shunday qilinsa, insofsizlik bo‘lur edi, deydi. Bu bilan u shu paytgacha turkologiya (anikrog‘i, o‘zbek tilshunosligi) uchun xos holat ekanligini ta‘kidlamoqchi bo‘ladi. M.Mirtojiyev esa uning bu qarashiga to‘la qo‘shiladi. Ular o‘zbek tilshunosligi (umuman turkologiya ham) rus tilshunosligi (umuman g‘arb tilshunosligi)da yaratilgan til nazariyasi va uning tadqiq etish metodlariga suyanib, o‘zbek tilshunosligini shakllantirib borishgan. M.Mirtojiyev turkologiyada mavjud nazariy qarashlarni o‘zbek tiliga tatbiq etish bilan birga shu tilning o‘ziga xos nazariy xulosalarini ilova etgan. Bunga erkin o‘zak haqidagi qarash va ular taraqqiyotini ko‘rsatish mumkin. A.Hojiyev ham morfema haqidagi qarashlarga ijodiy yondashgan.

M.Mirtojiyev va A.Hojiyev, yuqorida qayd etilganiday, o‘zak morfemani, Sh.Rahmatullaev fikriga qo‘shilgan holda, leksema deb atashni ma‘qul ko‘radilar. Buning uchun Sh.Rahmatullaevning “Til birligi uchun muhim jihat - mazmun jihati nuqtai nazaridan, leksema bilan morfema keskin farq qiladi. Bu ikki birlikning til qurilishining boshqa-boshqa bosqichlariga mansubligi ham ularning ayrim-ayrim birliklari ekanini tasdiqlaydi”, - degan fikrini keltiradi. M.Mirtojiyev esa Sh.Rahmatullaevning mazkur fikriga qo‘shilgan holda A.Hojiyev mazkur fikrni o‘rinli keltirgan, deb hisoblaydi.

A.Hojiyev u “tilshunoslikda o‘zak, o‘zak morfema terminlari ham iste‘moldan chiqdi,” - degan fikrni ilgari surgan. Muallifning bu xulosasi, yuqorida qayd etilganiday, o‘zak morfemani leksema deb tushunishi bilan bog‘liq. U shundan kelib chiqib, “morfema - o‘z ifoda va ma‘no jihatiga ko‘ra ega bo‘lgan, so‘z yasash va so‘z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik”, - deb izohlaydi. Shu bilan u o‘zak morfemani leksema deb hisoblagani holda, morfema sig‘imida faqat yordamchi morfemalar, ya‘ni yasovchilar va grammatik shakl yasovchilargina bor, degan fikri bilan chegaralanadi. A.Hojiyev bu fikriga so‘z yasash bilan bog‘liq hodisani nazarda tutib kelgan. Uningcha, ma‘lum leksemalar so‘z yasash asosi vazifasini o‘tab, unga so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi morfemalar qo‘shilib keladi. Faqat ular morfema vazifasini bajaradi. Lekin shu o‘rinda M.Mirtojiyevning ilovasini keltirib o‘tish joiz, so‘z yasash - hodisa, morfema esa

kommunikatsiyadagi soʻzning maʼnoli qismi - til birligi. Agar nutqda keyingisi uchun zaruriyati tugʻilsa, *ishchilarimizga* soʻzining soʻz yasash asosidagi i tovushi haqida fikr bildirilsa, u ishchi leksemasidagi qaysi i haqida gap ketayotganligini ajratishi uchun qiyinchilik tugʻdiradi. Agar oʻzakdagi i tovushi deyilsa, uning joyi aniq. U ergash morfemalarga qaratilsa ham, ikkinchi yoki uchinchi shakl yasovchi morfemadagi unli deb aniq koʻrsatilgan boʻladi. M.Mirtojievning fikricha, kommunikatsiyadan olingan soʻzning oʻzicha mustaqil leksik va grammatik maʼno anglatuvchi qismini, soʻzning morfologik qismlari haqida fikr yuritilar ekan, “oʻzak morfema” deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, tilning turli sathlari yuzasidan bir yoʻla yuritilgan bahs ayrim chalkashliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu muqarrar.

Demak, kommunikatsiyadagi soʻzning, leksik maʼno ifodasi markazida turgan va ergash morfemalarsiz ham ifoda bera oladigan, eng kichik maʼno qismini beruvchi morfemasi erkin oʻzak morfema, deb qaralishi kerak. Uni leksema nomi bilan adashtirmaslik joiz. Leksema termini til birligiga leksikografik, til boyligi sathi nuqtai nazaridan turib berilgan nom hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, bir morfemali soʻzlar faqat oʻzakdan iborat boʻladi. Turkiy tillardagi bunday oʻzakdan iborat soʻzlarni kommunikativ holdagi soʻz hisobi bilan erkin oʻzakdan iborat morfema deb qarab, nutqdagi soʻz birligi, deb olinadi. Bu nutq birligi til boyligi - leksemadir. U nutq uchun tanlanmasidan oldin oʻzak sifatida yaralgan va til birligi sifatida unga tanlangan, soʻz holatida shakl topgan, voqelangan. Xuddi shu oʻrinda professor M.Mirtojiev O.Qosimxoʻjaeva oʻz oʻquv qoʻllanmasida keltirgan: “Bir morfemali soʻzlar oʻzakdan iborat boʻlib, odatda tub soʻz hisoblanadi” , - degan fikrini qoʻllab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, LL.Pogodin ham: “Oʻzak soʻz paydo boʻlmasdan burun ham yuzaga kelgan boʻlishi kerak” - degan fikrini ilgari surishi haqiqatga mos keladi. Yana G.Kurtius ham yuqoridagi fikrlarni rivojlantiruvchi “Oʻzak tilning uzoq oʻtmishida, yaʼni fleksiya yuzaga kelmasidan burun hech qanday qoʻshimchasiz ham, tushunarli boʻlgan”, degan qarashini aytgan edi . Bu falsafiy nuqtai nazar, ayniqsa, turkiy tillar til boyligining yuzaga kelishi, taraqqiyoti, soʻzlarining morfologik shakllanishi va maʼnoli qismlarga boʻlinishi, koʻrinishi bilan bogʻliq qonuniyatlarga juda mos keladi. Buning ustiga, u, yaʼni oʻzak morfema hech qanday qoʻshimchasiz leksik maʼno ifoda etishi va hech qanday oʻzgarishsiz, morfologik kechimni bosib oʻtmasdan leksik maʼno bera olishi, lugʻat birligi sifatida olinishi uning leksema deb qabul etilish imkonini beradi. Buning uchun A.N.Gvozdev keltirgan soʻz uyasidagi soʻzlar uchun oʻzak vazifasini oʻtagan “uy” leksik maʼnoli “dom” morfemasini koʻrsatish oʻrinli boʻladi. U har qanday lugʻat soʻzligi uchun birlik boʻla oladi.

Biror soʻz oʻzi mansub tilda biror morfemaga, oʻzak morfemaga — tub soʻzga kelib chiqishi jihatidan bogʻlanmasa, (u, albatta, bogʻlangan, uni yaratgan tub soʻz uyasiga mansub boʻladi) qardosh turkiy tillardan biridagi tub soʻz, yaʼni oʻzak morfemasi boʻlib chiqishi muqarrar. Umuman tillarda, N.K. Dmitriev qayd etganiday, oʻzakning oʻzi hozirgi davrda soʻz ham hisoblanadi . A.Gʻulomov bu

haqda yana ham aniq qilib "tub so'z o'zak bilan deyarli hamma vaqt bir tusda bo'lishiga qaramay, undan farqlanadi: tub so'z leksik-grammatik butunlik bo'lsa, o'zak so'zning qismidir. Bu qat'iy qonuniyatdir.

Demak, kommunikatsiyadagi har bir so'zning o'zak morfemasi bor. Turkiy tillardagi har bir so'zning o'zak morfemasi til boyligida leksema darajasida bo'ladi. Biror so'z o'zak morfemasiz, tub so'zsiz hayot emas. So'zlarning yaralishi ham bir tub so'zga borib taqaladi. O'zak morfema turkiy tillarda erkin o'zak morfema bo'ladi.

Xullas, morfema so'zning ma'no va fonetik shakliga ega eng kichik qismidir. Uni M.Mirtojiyev semantik mohiyatiga ko'ra ikki ko'rinishda izohlaydi: 1) o'zak morfema, 2) ergash morfema. O'zak morfemada so'z leksik ma'nosi umumlashadi. O'zak morfemasi bo'lmagan so'z hayot emas. Undan yasalgan so'zlar til boyligida so'z uyasini tashkil qiladi. O'zak morfema ergash morfemalarsiz ma'no ifoda etish yoki eta olmasligiga ko'ra erkin o'zak morfema va bog'liq o'zak morfemalarga bo'linadi. Bog'liq o'zak morfema, garchi so'zning ma'lum bir leksik va grammatik ma'nolarini o'zida markazlashtirsa ham, o'zicha mustaqil ma'no bermaydi va hech narsani anglatmaydi. M.Mirtojiyev: "Bunday o'zak morfema flektiv tillarda bo'ladi. Ular agglyutinativ tillardagi so'zlarga xos emas. Erkin o'zak morfemalar, so'zning ma'lum bir leksik va grammatik ma'nolarini o'zida markazlashtirish vazifasini tutgani holda, ergash morfemaga ega bo'lmasa ham, u o'zicha mustaqil leksik ma'noga ham, grammatik ma'noga ham egalik qiladi," - deb ta'kidlaydi. Bunday o'zak morfema asosan turkiy tillar oilasiga mansub tillardagi so'zlarda kuzatiladi. U flektiv tillarning ot turkumiga oid ayrim so'zlarida ham bo'ladi. Turkiy tillar oilasiga mansub tillarning o'zak morfemasiga xos mazkur hususiyatdan kelib chiqib, ayrim tilshunoslar ularni leksema deb atalishini lozim ko'radilar. Ammo u kommunikatsiyadagi so'zning ma'noli eng kichik qismi bo'lib, o'zak deb ataladi. Leksema til boyligi birligini bildiradi. Ya'ni erkin o'zak morfema mustaqil xoli bilan til boyligida leksema, kommunikatsiyada so'z hisoblanadi. O'zak morfema tarixan eng qadimiy ekanligi, leksema va so'z shakllanishida asos bo'lgani uchun, uni turkiy tillar tilshunosligida tub so'z deb nomlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Mirtojiyev. O'zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so'z. 2017.
2. M.Mirtojiyev. Turkiy tub so'zlar tadqiqi. T.: FAN. 2017.
3. U.N.Rustamovna, M.O.Toxirjonovna. [Polysemy-Semantic Universal](#).
4. International Journal of Culture and Modernity 14, 2022. 11-15-b
5. O.Maxmudova. [ONA TILINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGANISH](#). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.2022.
6. O.T.Maxmudova. [SOZ TURKUMLARINI TASNIFLASHDA INTERFAOL METODLARDAN UNUMLI FOYDALANISH JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY USULLARNING QO'LLANISHI](#). In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 219-224.2022.

7. M.O.Tokhirjonovna. [Semantics of the Word in Children's Speech.](#) International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273.2022
8. M.O.Tokhirjonovna. [VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN.](#)Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379. 2022.
9. O.Махмудова. [СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ.](#) Science and innovation 1 (B6), 171-176.2022.